

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6092661>

Abaeva Intizar

Nurishev Nurberdi

Meretgeldiyeva Aygul

NDPI Boshlangich talim

fakulteti 2 kurs talabalari

Anotatsiya: *Inson dunyoda umid bilan yashaydi. “Orzularimga yetay, shinam uy-joyim bo’lsa, yon-atrofimda qulay sharoit, bekamu ko’st muhit hukm sursa, jamiyatga, raiyatga, davlatga, oilamga, ota-onamga, do’stu yorlarga, mahalla-ko’yga, qishlog’imga, yurtimga foydam tegsa, murodu maqsadim ushalsa”, deydi.*

Kalit so’zi: *inson qadri, ulug’lash, ezgu maqsad*

Keksalar “Odam bolasi hayotdan rozi bo’lsa, tog’ni tolqon qiladi” deyishadi.

Kim buni tushunar, kim buni anglamas. Prezidentimiz har bir inson umid bilan yashar ekan, ertaga, indin yoki undan keyin emas, hozir, shu bugun niyatiga yetishini, umridan, hayotidan, har bir kunidan rozi, mamnun bo’lishini istaydi.

Bu — ulug’vor maqsad, ezgu amal, abadiyatga daxldor fikrat.

Zero, bugun odamlarni rozi qilish — kelajagimizni go’zal, betakror, ulkan salohiyat va qudrat kasb etishini ta’minlaydi. Bu — inkor qilib bo’lmas haqiqat. Chunonchi, baxtli odamlargina dunyoni yangilashga, o’zgartirishga qodir. Mamlakatimiz siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalarda jo’shqin hamda jadal islohotlar davriga kirdi. Ana shu mukarram insonlarning yoshi ham, qarisi ham, ayoli ham, erkagi ham birdek qadr – qimmatga egadir. Islom dini inson qadrini shu darajada yuqori kutarganki, hatto uning tirigi bilan uligining hurmati birdek qadrlanadi.

Avji navqiron yigitlik paytlari ikkinchi jahon urushi yillariga tugri kelgan ota – bobolarimizning imon – etiqodlari Alloh taoloning katta sinovidan utdi. Ular jannatmakon yurtlarini, ahli – ayollariyu qondosh va dindoshlarining sharafini va nomusini, khalq osoyishtaligini himoya qilish uchun manfur dushmanga qarshi jangga otlanishdi. Salkam besh yil olis va begona yurtlarda, qiyinchilik va mashaqqatlarga dosh berib, uqlar yomgiri va ulim tahlikasi ostida ayovsiz kurash olib borishdi.

Urush uz nomi bilan urush edi, bu janglardan kamdan-kam yurtdoshlarimiz omon qaytishdi. Bir qanchalarining hoki uzga yurtlarda qolib ketdi, bir qanchalari mayib – majruh, nogiron bulib qaytishdi. Yurtdoshlarimiz faqat frontlarda jang qilishmadi, ular mamlakat ichkarisida ham khalq khujaligini tiklash, khalq farovonligini yuksaltirishishida chinakam matonat kursatishdi. Ular boshiga kelgan sinov va musibatlar faqat bugina emas, ota-bobolarimizning kattagina qismi qatagon yillarining qurboni bulishdi. Asosiy qomusimiz kafili sifatida Konstitusiya va qonunlarimiz talablarini so’zsiz bajarish, “Inson



qadri uchun” degan ustuvor tamoyilni to’la ro’yobga chiqarish, bundan buyon ham faoliyatimning bosh mezonini bo’lib qoladi.

Albatta, inson qadri biz uchun qandaydir mavhum, balandparvoz tushuncha emas. Inson qadri deganda, biz, avvalo, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta’minlashni nazarda tutamiz.

Inson qadri deganda, biz har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etishni, malakali tibbiy xizmat ko’rsatish, sifatli ta’lim, ijtimoiy himoya tizimi, sog’lom ekologik muhit yaratib berishni tushunamiz. Shundan kelib chiqqan holda 2022-yildagi prezidentimiz tomonidan «Inson qadrini ulug’lash va faol mahalla yili» deb e’lon qilindi. Buning zamirida insoni yanda ulug’lash, uning qadri hamma narsadan ulug’ ekanligini yorqin ifodasi bo’ldi desak adashmagan bo’lamiz.

Bugungi kunda barcha ishlab chiqilayotgan qonun, farmon va boshqa huquqiy hujjatlar barchasi inson qadrini ulug’lashga qaratilgan eng oliy maqsad ko’zlangan.

Xalq qachonki rozi bo’lsa jamiyat tinch va baxtli bo’lishadi. Hozirgi zamonda hamma narsa yetarli darajada bo’lib, inson qadri asta-asta tushayotgan bir paytda prezidentimiz tomonidan inson qadrini ulug’lashga, uning manfatlari, yaxshi yashashi, oilasi tinch va farovon yashashlari kerakli haqida aytib o’tidilar.

Respublikamizda inson qadri borasida turli loyihalar, qonunlar, farmonlar ishlab chiqilmoqda va ular amalga tadbiiq qilib borilmoqda. Yoshlarni qo’llab-quvvatlar ular barcha imkoniyatni yaeratib berish, ularni yetuk va yurt keljaga manfati degadigan shaxs bo’lib shakilanishiga kata etibor berilib kelinmoqda.

Shun o’rinda xulosa sifatida barcha olib borilayotgan islohotlar barchasi inson qadri uchun va uni ulug’lash uchun qaratilgan eng oliy maqsad yotibdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YHATI:

1. ziyonet.uz
2. pedagog.uz

